


## 2020-yil 1 yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 8365 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3534 taga ko'pdirdi.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga 33250 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,4 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,8 % savdo, 19,1 % sanoat, 8,8 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,0 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 25,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>26297</b>	<b>33250</b>	<b>126,4</b>	<b>100,0</b>

*shundan:*

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2054	2556	124,4	7,7
Sanoat	4883	6348	130,0	19,1
Qurilish	2332	2927	125,5	8,8
Savdo	5867	8242	140,5	24,8
Tashish va saqlash	855	1004	117,4	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1698	2529	148,9	7,6
Axborot va aloqa	442	522	118,1	1,6
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	577	696	120,6	2,1
Boshqa turlari	7589	8426	111,0	25,3


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9959 ta), Urgut (2908 ta), Pastdarg'om (2804 ta) va Samarqand (2387 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (755 ta), Paxtachi (840 ta) hamda Nurobod (976 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31354 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6288 ta (25,1 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 24,8 % savdo, 19,1 % sanoat, 8,7 % qurilish, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,1 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa va 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9538 ta), Urgut (2849 ta), Pastdarg'om (2619 ta) Samarqand (2177 ta) va Ishtixon (1664 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (701 ta), Paxtachi (805 ta) hamda Nurobod (917 ta) tumanlarida esa korxonalarining soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-dekabr oylarida 8365 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`satkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,7 martaga ko`pdir.

**Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (2308 ta), Pastdarg`om (711 ta), Urgut (696 ta) va Samarqand (687 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (183 ta), Paxtachi (208 ta) hamda Narpay (217 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`satkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2782 ta), sanoat (1971 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (913 ta), boshqa faoliyat turlari (848 ta), qurilish (704 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (639 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (145 ta), axborot va aloqa (161 ta) hamda tashish va saqlash (202 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Tijorat korxonaları**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 25781 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5544 ta, oilaviy korxonalar - 4311 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 15417 ta, unitar korxona – 231 ta, aksiyadorlik jamiyat – 30 ta va boshqalar 248 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 508 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 112 taga yoki 28,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga xorijiy kapital ishtirokida 508 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (226 ta), Urgut (44 ta), Jomboy (39 ta) va Samarqand (34 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (4 ta), Paxtachi (7 ta) hamda Kattaqo'rg'on (9 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 361 tasi qo'shma korxonalar, 147 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>508</b>	<b>361</b>	<b>147</b>
Samarqand sh	226	143	83
Kattaqo'rg'on sh	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	22	20	2
Bulung'ur	20	9	11
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	9	9	-
Qo'shrabot	12	4	8
Narpay	4	4	-
Payariq	14	7	7
Pastdarg'om	23	18	5
Paxtachi	7	4	3
Samarqand	34	28	6
Nurobod	11	10	1
Urgut	44	41	3
Tayloq	13	10	3

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 160 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar (52 ta yoki jamidagi ulushi 32,5 %), Jomboy hamda Samarqand (12 ta yoki 7,5 %), Qo'shrabod va Pastdarg'om (11 ta yoki 6,9 %), Kattaqo'rg'on shahar hamda Bulung'ur (10 ta yoki 6,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Narpay (1 ta yoki 0,6 %), Paxtachi (2 ta yoki 1,3 %), Urgut va Tayloq (4 ta yoki 2,5 %), Ishtixon va Nurobod (5 ta yoki 3,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 31 ta, Turkiya Respublikasi 24 ta, Rossiya Federatsiyasi - 23 ta, Koreya Respublikasi – 12 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi,

Qozog`iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (75 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (26 ta), savdo (18 ta), qurilish (17 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), tashish va saqlashda (4 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9 ta) tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



### **Kichik korxona va mikrofirmalar** (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 25643 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 30,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8205 tasi (32,0 %) Samarqand shahri, 2372 tasi (9,3 %) Urgut, 2130 tasi (8,3 %) Pastdarg'om hamda 1888 tasi (7,4 %) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi** (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25643 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7740 tasi (30,2 %) - savdo, 5941 tasi (23,2 %) - sanoat, 2716 tasi (10,6 %) - qurilish, 2383 tasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2235 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 939 tasi (3,7 %) - tashish va saqlash, 554 tasi (2,2 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 473 tasi (1,8 %) – axborot va aloqa

sohasi, shuningdek 2662 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Kichik korxona va mikrofirmalarning soni to'g'risida  
MA'LUMOT**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

*birlikda*

	<b>Ro'yxatdan o'tgan</b>	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan</b>	<b>Yangi tashkil etilgan</b>
	<b>01.01.2020 y.</b>	<b>01.01.2020 y.</b>	<b>2019 yil yanvar-dekabr</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>27322</b>	<b>25643</b>	<b>7980</b>
Samarqand sh	8534	8205	2222
Kattaqo'rg'on sh	972	922	320
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1068	932	292
Bulung'ur	976	899	289
Jomboy	955	940	357
Ishtixon	1449	1354	494
Kattaqo'rg'on	1238	1156	412
Qo'shrabot	525	473	168
Narpay	816	789	206
Payariq	1485	1301	392
Pastdarg'om	2307	2130	681
Paxtachi	590	569	200
Samarqand	2084	1888	664
Nurobod	754	699	253
Urgut	2425	2372	659
Tayloq	1144	1014	371

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 7980 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (2222 ta), Pastdarg'om (681 ta), Samarqand (664 ta) va Urgut (659 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (168 ta), Paxtachi (200 ta), Narpay (206 ta) hamda Nurobod (253 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2779 ta), sanoatda (1968 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (913 ta), qurilishda (702 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (637 ta) va boshqa turlarida (496 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (122 ta), axborot va aloqada (161 ta) hamda tashish va saqlashda (202 ta) tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 4566 tani tashkil etib, ulardan 4311 tasi yoki 94,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi soni o'rtacha 56,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim .

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,6 % yoki 1362 tasi sanoat, 27,2 % yoki 1172 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 23,8 % yoki 1024 tasi savdo, 8,0 % yoki 344 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 31 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 38 tasi qurilish, 0,9 % yoki 40 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,6 % yoki 287 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand sh	464	21,7
Kattaqo'rg'on sh	30	1,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	59	2,8
Bulung'ur	84	3,9
Jomboy	132	6,2
Ishtixon	173	8,1
Kattaqo'rg'on	97	4,5
Qo'shrabot	17	0,8
Narpay	67	3,1
Payariq	174	8,1
Pastdarg'om	284	13,3
Paxtachi	11	0,5
Samarqand	221	10,3
Nurobod	18	0,8
Urgut	142	6,6
Tayloq	170	7,9

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2143 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdır. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahri (464 ta), Pastdarg'om (284 ta), Samarqand (221 ta) va Payariq tumanlari (174 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nurobod (18 ta) va Paxtachi tumanlarida (11 ta) tashkil etilgan.

### **2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,4 % yoki 672 tasi sanoat, 30,1 % yoki 645 tasi savdo, 26,1 % yoki 559 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,1 % yoki 153 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 0,5 % yoki 10 tasi qurilish, 0,6 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 4 tasi sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,5 % yoki 74 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

**KTYADR** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldaggi 66-son qaroriga asosan ro'yxatdan o'tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.



Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-85-42 (43)